
BILASIZMI?



Bilasizmi?

Turar joyning maydoni to'g'risida ma'lumotnoma

Ariza beruvchilar davlat xizmatidan foydalanish uchun Davlat xizmatlari markaziga shaxsan kelib yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YalDXP) orqali murojaat qiladi.

Davlat xizmatidan foydalanuvchilar toifasi:

Jismoniy shaxs

Vakolatli organ:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi

Davlat xizmatidan foydalanish uchun talab etiladigan ma'lumotlar:

So'rovnomada shaxsga oid quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

familiyasi, ismi va otasining ismi (o'zgargan bo'lsa, bu haqda ma'lumotlar ko'rsatiladi)

pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi ma'lumotlari (JShShIR ma'lumotlari);

ma'lumotnoma tili (o'zbek/rus);

yashash manzili;

elektron manzili (mavjud bo'lsa) va telefon raqami;

obektning kadastr raqami.

Notarial tasdiqlangan ishonchnoma (agar ishonchli vakil tomonidan harakat qilinayotgan bo'lsa).

Davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun undiriladigan yig'im miqdori:

Bepul

Davlat xizmatini ko'rsatish muddati:

3 ish kuni

Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.11.2023 yildagi 612-son qarori

Abdumannon Umriddinov - So'x tumani adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi sho'ba mudiri